

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI
“JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI” kafedrasi

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

Jismoniy madaniyat fakulteti dekani:

_____ O.J. Begimqulov
«_____» _____ 2018 yil

Mavzu: «Jismoniy tarbiya dars jarayonida interfaol usullaridan foydalanish»

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: 5112000-jismoniy madaniyat ta`lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi:
Ishmuratova Nodira Saparovna

ILMIY RAHBARI:

B.A. Toshmurodov _____

TAQRIZCHI:

I.A.Daminov _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o`tdi

“_____” sonli bayonnomasini “_____” _____ 201__ yil.

TERMIZ- 2018 y.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB JISMONIY TARBIYA YO'NALISHIDAGI TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING DOLZARBLIGI.....	8
1.1. Innovatsiya ta'lימי rivojlantirishda pedagogik texnologiyaning mohiyati va muammolari.....	8
1.2. Interfaol texnologiyalardan namunalar.....	14
1.3. Innovatsiya ta'lימי rivojlantirishda pedagogning faolligi sifati to'g'risida.....	19
II -BOB. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI TASHKIL QILISH METODI.....	28
2.1. Adabiyotlar tahlili.....	28
2.2. Guruhlarni tanlash va tajriba qo'llash	33
III. BOB. ILMIY TAJRIBANI O'TKAZISH USULIYATI.....	34
3.1. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari.....	34
3.2. An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar.....	36
3.3. Texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	49
XULOSA.....	57
FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO`YXATI.....	58
ILOVALAR	60

KIRISH

Mavzuning dolzarbliyi: O'zbekiston Respublikasining “Ta'lism to'g'risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga binoan oliy ta'limning maqsadi hozirgi davr talablariga javob beradigan, ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni ta'minlay oladigan va yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlashdir¹. Shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lism tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etib, uni amalga oshirishdek dolzarb vazifalarni oldimizga qo'yemoqda.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston hukumati, shaxsan muhtaram Prezidentimiz SH.M. Mirziyoev ta'lism tizimini takomillashtirish, ta'lismni sifatiga e'tabor qaratish uni jahon andozalariga muvofiqlashtirish bo'yicha ibratli ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lism to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu muhim hujjatlar istiqboliy xarakterga ega bo'lib, ularning mamlakatimiz ta'lism tizimini takomillashtirishda qanday ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ma'lum. O'tgan davr ichida ta'lismni isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning bajarilishi bo'yicha dastlabki yutuqlar ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Ta'lism mazmunini isloh qilib, uni jahon ta'lism standartlariga muvofiqlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilgan². Xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «o'quv jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» zarurligi ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, ta'limning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun «ilg'or pedagogik texnologiyalarni hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonning didaktik ta'minotini yaratish» talab etiladi. Bu muhim vazifaning ijobjiy hal etilishi ta'lism jarayonini tashkil etishga nisbatan

¹ «Ta'lism to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» 1997, Toshkent.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida(1997 yil 29 avgust)

iinnovatsiya yondashuvni tahozo hiladi. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida uzliksiz ta'lif tizimining barcha bosqichlarida ta'lif jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni izlab topish, bu borada eng maqbul omil deb topilgan yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv yurti faoliyatlariga tatbiq etish borasida amaliy harakatlarni olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda. Ushbu nazariy xulosaning amaliy tadbiqi sifatida bir qator tajriba ishlari amalga oshirilmoqda.

Ta'lif jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish borasida oliy ta'lif tizimida ham izlanishlarning tashkil etilayotganligi alohida e'tiborga molikdir. Zero, oliy ta'lif tizimi ijtimoiy zaruriyat sifatida namoyon bo'layotgan malakali mutaxassisni tarbiyalash jarayonida o'ziga xos o'rinn tutadi. Oliy o'quv yurtlarida turli yo'nalishlarda malakali kadrlarni tayyorlash davrning o'ta muhim talabi bo'lib, bu borada barcha imkoniyatlarni ishga solish alohida dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichi sifat bosqichi hisoblanib, bunda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish muxim axamiyatga ega bo'ladi³. Bunda xorijiy mutaxassis olimlar bilan bir qatorda respublikamizning pedagog olimlari Ashirbaev S., Sayidaxmedov N.S., Jo'raev R.H., Farberman B.L. va boshqalar tomonidan ham samarali ilmiy-tajriba ishlari olib borilmoqda. Mamlakatimiz o'quv yurtlarida ham pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga turlicha qarashlar va bu tushunchani o'ziga xos talqin qilishlar, shuningdek, pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondashuvlar sodir bo'lmoqda. Ushbu bo'limda o'tgan asrning 60-yillarida AQSh (B. Blum, D. Kratvol, N. Gronland, J. Kerrol) da yaratilgan va jahondagi 30 ga yaqin mamlakatlar ta'lif tizimida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinayotgan pedagogik texnologiyaning mohiyati, uning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari hamda bu texnologiyaning mamlakatimiz ta'lif tizimiga joriy etishning ahamiyati haqida

³ Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot).-Toshkent:Moliya nashriyoti.2003.

fikr yuritiladi. Zero, o'qitishga texnologik yondashuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tadbiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lif standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rinnutishi muqarrardir.

Pedagogik texnologiyalar o'zining mazmuni bilan bo'lajak mutaxasis shaxsini shakllantirishga qaratilgan vazifani amalga oshiradi⁴.

O'qituvchining pedagogik texnologiyalar asosidagi faoliyatiga yaratuvchanlik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

O'qituvchining bunday faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilgandir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi pedagogik texnologiya shartlaridan biridir.

Interfaol mashg'ulot - o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirot etadigan mashg'ulot. Bunda jarayon o'zaro hamkorlikda kechadi.

Interfaol usul – bu ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlikdagi ta'lif usuli bo'lib, unda ta'lif oluvchi va ta'lif beruvchi bir-birini to'liq tushunishga erishiladi. Bu usul esa jsmoniy tarbiya va sport fanini o'qitishda uchraydigan doimiy hol.

«Inter» so'zi lotincha bo'lib, o'zbek tilidagi «oraliq», «o'rtasi», «o'zaro» kabi ma'nolarni bildiradi. Shu sababli ham interfaol usullar ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchilar o'rtasidagi faolliga asoslangan ta'lif uslubiyati deb ham atash mumkin.

Ishning ob'ekti: Termiz davlat universiteti jismoniy madaniyat yo'naliшining IV-bosqich talabalarining Jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish fanidan o'tiladigan dars faoliyati.

Ishning maqsad: Termiz davlat universiteti jismoniy madaniyat yo'naliшining bilish faoliyatini sport o'yinlari, gimnastika va unii o'qitish metodikasi fani mavzulari bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos xolda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etib ularning o'zlashtirish darajalarini oshirish. Ularning ongli ravishda bilim olishlariga erishish.

⁴ Tolipov U., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. Fan, 2005.

Ishning ilmiy farazi.

Agar:

- talabalar uchun yaxlit uzluksiz tarbiya tizimini ta'minlaydigan uslubiy majmualar ishlab chiqilganda;
- talabalarining individual psixologik xususiyatlari, xususan, o'quv materiallarini idrok etishi, ularning motivatsion sohasi atroficha o'rganilib chiqilganda;
- talabalarni intellektual rivojlanishlari va o'z qobiliyatları, moyilliklariga muvofiq tanlangan kasb-hunarlar bo'yicha malakalarni egallashni ta'minlaydigan biror bir Nizomi ishlab chiqilganda jismoniy tarbiyada ta'lim berish samaradorligi oshadi.

Ishning vazifalar:

- O'quv jarayonlariga interfaol o'yinlarni ta'lim talablari va mazmuniga mos ravishda tashkil qilish.
- Mavzuga oid ilmiy-pedagogik manbalarni me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida muammoning nazariy-amaliy asoslarini aniqlash.
- Talabalarda jismoniy tarbiyaga oid nazariy bilimlarini oshirishda ilmiy-pedagogik asoslarni belgilash.
- Talabalarda jismoniy tarbiyaga oid nazariy bilimlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyadan foydalanishning mavjud holatini o'rganish.
- Talabalarda jismoniy tarbiyaning nazariy bilimlarini pedagogik texnologiyalar orqali shakllantirish mazmuni, shakli, vosita va yo'llarini belgilash.
- Biz bo'lajak o'qituvchilar dars jarayonida birinchi navbatda o'quvchilardan fanlardan chuqur va mustaxkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mexnat qilishga extiyojni tarbiyalab borishni kuzda tutamiz.

Ishning ilmiy yangiligi:

- to'rtinchi bosqich talabalarida pedagogik texnologiyalar orqali jismoniy tarbiya to'g'risida nazariy bilimlarini oshirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi aniqlandi.

- talabalarni nazariy bilimlarni oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mavjud holati o'rganildi;
- talabalarni nazariy bilimlarini oshirishda pedagogik texnologiyalar orqali mazmunini oshirish, shakli, vosita va yo'llari belgilandi;
- talabalarni nazariy bilimlarni oshirishda pedagogik texnologiyalarga yo'naltirilgan ilmiy-metodik samaradorlik darajasi aniqlandi.

Ishning amaliy axamiyati: BMIshning natijalari quydagি hollarda qo'llanilishi mumkin: o`quvch-talabalarning nazariy bilimlarini oshirishda, interfaol usullar orqali darslarni tashkil etishda, dars loyihalarini tuzishda, o`quvch-talabalarda jismoniy tarbiyaning nazariy bilimlarini pedagogik texnologiyalar orqali shakllantirish mazmuni, shakli, vosita va yo'llarini belgilashda qo'llanilishi mumkin.

I-BOB JISMONIY TARBIYA YO'NALISHIDAGI TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING DOLZARBLIGI.

1.1. Innovatsiya ta'limni rivojlantirishda pedagogik texnologiyaning mohiyati va muammolari.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab bergenligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi⁵.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan hayotimiz jahbalarida ro'y beradigan "portlash effekti" natijalari ro'y-rost ko'rsatib berildi, ya'ni:

- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy t'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi.;
 - insonning hayotidan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;
 - jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi;
 - jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;
 - fuqarolik jamiyati qurishni ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi.

Yo'llarda uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich va izchil hal etish masalalari nafaqat pedagog nazariyachi va amaliyotchilarni junbushga keltiradi, balki jamiyatimizni to'liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiyashunoslik asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga etkazish jarayonini yangi pedagogik "qurol" va vositalar bilan ta'minlash davr taqozosidir.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 2-ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi,

⁵ I.A.Karimov «Ta’lim to’g’risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» 1997, Toshkent.

o'qituvchi faoliyati yangihlanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab etadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning echimi qaysi darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq?

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - san'at, hunar va "logos" (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tajriba mavzusiga ko'chirish mumkin, ya'ni: Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir.

Pedagogik nashrlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: "o'qitish texnologiyasi", "o'quv jarayoni texnologiyasi", "ma'lumot texnologiyasi" va hokazo.

O'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo'lsada, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'llini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir jinslidir.

Pedagogik texnologiya esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini

ifodalaydi va “o’qituvchi-pedagogik jarayon - o’quvchi(talaba)” funktsional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Xozirgi kunda o’qituvchilar metodikani ko’p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo’ladi. Metodika o’quv jarayonini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko’zlangan maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko’chirishdir. Misol uchun, gaz qonunlarini tushunchalarini shakllantirish metodikasi yoki energiyaning saqlanish qonunini fizika kursining elektr bo’limida qo’llash metodikasi va h.k.

Pedagogik texnologiya o’qitish jarayoning o’zaro bog’liq qisimlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarni qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta’minlaydi⁶. Texnologiya o’zining egiluvchanligi, natijalarning turg’unligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Shu bilan birgalikda ma’lum vaqt davomida pedagogik texnologiya o’quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati iinnovatsiya talqin etila boshlandi. Ob’ektiv borliqni o’rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko’lamda qo’llanilgach, uning ta’siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga ham aniqlik kiritildi.

Pedagogik texnologiya belgilangan boshlang’ich maqsad va mazmun asosida o’quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etiliyapti.

Kator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog’liq bo’lmagan holda o’rganilib kelindi. Natijada o’qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o’quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilg’or metodikalar texnologiyalar darajasiga ko’tarila olmay asta-sekinlik bilan o’z mavqeini yo’qotib pedagogika fanidan uzoqlashib ketmoqdalar. Misol uchun, 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo’lganio Bugungi

⁶ Saidahmedov N.Pedagogik amaliyotda yangi texnologilarni qo’llash namunalari.-Toshkent:RTN.2000

kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlardan etarli. Nazariya va amaliyat birligining ta'minlanishi pedagogik texnologiya ning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiya pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni echishga qaratiladi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o'quv yurti) mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiylab belgilab beradi. "Maqsad" esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayrlashning milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi, ya'ni: "o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitdan to'la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash" deb belgilanadi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar (sanoat, qishloq xo'jaligi, elektron, axborot va boshqa) kirib kelmoqda. Ro'y berayotgan sifatiy o'zgarishlar shundan dalolat beradiki, endilikda "o'rganish"ning birlamchi jarayonlari an'anaviy metodika va o'qitish vositalari romiga sig'may, o'qituvchining individual qobiliyatariga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizualli vositalar mavjudki, ular yangi

pedagogik texnologiyani real voqelikka aylantirdi.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o’z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma’lum “material“ bilan ish ko’radi. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog’liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo’lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik, hatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o’ziga xos tomonlari - tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an’anaviy o’quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta’sir ko’rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Shu erda pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi o’rtasidagi o’zaro munosabatni oydinlashtirish lozim bo’ladi. Keyingi vaqtarda ba’zi bir olimlar (ayniqsa informatika fani vakillari) pedagogik texnologiya ni axborotlashtirishga qo’shish yoki tenglashtirish (ba’zan ustun qo’yish)ni yoqlamoqdalar. Bu urinishlar agar xato bo’lmasa, shubhasiz “podadan oldin chang chiqarishdir“. O’quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy (ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab) voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy “burilish“, uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda ta’limda axborot texnologiyasi - bu “o’quvchi - kompyuter“ o’rtasidagi muloqotdir.

Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi, texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida ta’lim jarayonida qo’llanila boshlandi. Keljakda iqtisodiy burhonlar ortda qolib o’quv yurtlari dasturli “mashina“ bilan etarli darajada ta’minlanadi. Shundagina axborotli texnologiya asosida o’quvchi (talaba)larning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug’iladi va u o’qituvchining yaqin ko’makdoshiga aylanadi yoki uning funktsiyalarini to’liq bajarishi mumkin.

Ta’limni texnologiyalashtirish ob’ektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa ilmiy-texnik taraqqiyot yo’nalishi bilan belgilanishini e’tirof etgan holda pedagogik texnologiyaning o’ziga xos tomonlari va yaqin keljakda u bilan bog’liq

vazifalarni belgilashga harakat qilamiz:

- 1) ko'p bosqichli ta'limgiz tizimida pedagogik texnologiyaning o'rmini aoslash va zaruriy tavsiyanomalar ishlab chiqish;
- 2) zamonaviy sanoat, tibbiyat, iqtisodiyot, ekologiya, ergonomiya kabi soha texnologiyalari bilan pedagogik texnologiya larni muntazam ravishda yangilab borish va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ularni qo'llash mezonlarini aniqlash;
- 3) istiqbolli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg'or pedagogik texnologiya larni loyihalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish va samarasini aniqlash;
- 4) tegishli boshqaruv organlari (Ta'limgiz markazlari) tomonidan o'quv muassasalari faoliyatida yangi pedagogik texnologiya larni tadbiq etilishi darajasini nazorat qilish va baholash;
- 5) respublikamizdagi oliy (o'rta maxsus, kasb-hunar, maktab) ta'limgiz tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ilg'or pedagog va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzlusiz tashkil etish;
- 6) oliy o'quv yurtlari talabalari, ayniqsa, mutaxassis-pedagog (iqtisodchi-pedagog, huquqshunos-pedagog, muxandis-pedagog va boshqa)lar uchun 40 soat hajmida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maxsus kurs joriy etish;
- 7) respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilar ish uslublarini muntazam o'rganib borish va ular tomonidan yaratilgan metodikalarni yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish;
- 8) o'qituvchi faoliyatini pedagogik texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish muammolari va boshqalar.

Fikrimizcha, ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash va hayotga tadbiq etish muammosi mamlakatimizda ham rivojlangan davlatlar qatori yangi korxona - "Pedagogik texnologiya Davlat Markaz"ini tuzishni taqozo etadi. Agar shunday

Markaz tashkil etilsa, birinchi navbatda “portlash effekti“ sari yo’lni qisqartirishga hissa qo’shgan bo’lardi. Uchinchi ming yillikda ta’lim taraqqiyotining haqqoniy dvigateli sifatida o’qituvchi faoliyatini yangilashga, ta’lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, talaba yoshlarda hurfklilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg’ularini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatar edi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta’lim to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu muhim hujjatlar istiqboliy xarakterga ega bo’lib, ularning mamlakatimiz ta’lim tizimini takomillashtirishda qanday ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ma’lum. O’tgan davr ichida ta’limni isloh qilish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning bajarilishi bo’yicha dastlabki yutuqlar ekanligini ta’kidlab o’tish lozim.

1.2. Interfaol texnologiyalardan namunalar.

Aqliy hujum metodi. Aqliy hujum metodidan nazariy, ham amaliy darslarda foydalanish qulay. Bu metod bir zumda auditoriyadagi barcha o’quvchi-talabalarni qamrab olib ularni aktiv holatga keltiradi.

Yaxlit mavzu, uning bir qismi yoki tanlab olingan muammo yuzasidan o’quvchi-talabalarga beriladigan savollar majmuasi o’qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan bo’lishi ishda yaxshi natija beradi.

Aqliy hujum metodi qo’yilgan muammo echimiga bog’liq ravishda 5-10 daqiqa davom etishi mumkin. Bunda o’quvchi-talabalarning berayotgan javoblariga na o’qituvchining va na boshqalarning aralashuviga, har qanday fikr bildirishlariga yo’l qo’yilmaydi va natijalar baholanmaydi, ballar qo’yilmaydi. Bu qoida ko’pincha o’qituvchi tomonidan avtomatik tarzda buziladi, ya’ni talaba-o’quvchi bildirgan noto’g’ri fikrga tezda o’z munosabatini bildirib to’g’rilaydi. Bu vaziyat talaba-o’quvchilarni fikrlashdan to’xtatadi, darsda foydalanilayotgan aqliy hujum metodiga putur etkazadi. Maqsad: noto’g’ri bo’lsada o’quvchi-talabaning

o'z fikrini bildirishiga erishishdan iborat. O'qituvchi umumlashtirishdan so'ng bildirilgan fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riliqi har bir talabaga ma'lum bo'ladi.

Talabalarning fikr yuritishlari o'qituvchi tomonidan to'g'ri yo'lga solib turiladi va rag'batlantirilib boriladi. Vaqtı-vaqtı bilan fikrlar umumlashtirib turiladi.

Muammoning echimi bo'yicha fikrlar shaklannib bo'lgach u oxirgi marta umumlashtiriladi va aniq fikrga kelinadi. Shundan keyin talabalar o'zlarining takliflarini o'zları solishtirib, to'g'ri va xato fikrlarini anglab etishadilar va o'zlarini o'zları baholaydilar. Ammo o'qituvchining ularga baho yoki tanbeh berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bumerang texnologiyasi. Otilgan buyumning otuvchiga qaytib kelishini ta'minlovchi o'roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta'limda bumerang metodining ma'nosi pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning talaba-o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan holda o'qituvchiga og'zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1. Darsda o'rganiladigan mavzuning rejasida 4 ta mavzucha bo'lsa, auditoriyadagi talabalar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi mavzucha o'qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh talaba-o'quvchilarining har biriga taqdim etiladi. Shu tariqa rejadagi boshqa mavzuchalar ham javoblari bilan birgalikda o'ziga mos nomerdagи guruhlarning talaba-o'quvchilariga tarqatiladi. Har bir guruhdagi talabalar o'zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta mavzuchani o'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o'rganib chiqishadilar.

2. Shundan keyin 4 guruh talaba-o'quvchilari aralashtirilib, Yangi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarning har birida dastlabki 4 guruhlarning barchasidan bir nechtadan talaba-o'quvchilarning ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o'quv materialini yaxlit jamoa bo'lib o'rganish imkoniyati tug'iladi. Muhimi, talaba-o'quvchilarda o'quv materialini mustaqil o'rganish, hamkorlikda ishslash,bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko'nikma va

malakalari shakllanadi.

3. O'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo'lib o'rghanish yakunlangach, talaba-o'quvchilar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O'qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o'zlari tanlagan bir talaba-o'quvchi sheriklarining to'plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o'qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o'tkaziladi. Bunda qo'yilgan savolga to'g'ri javob bergan talaba-o'quvchiga 3 ball, to'g'ri qo'shimcha qilganga 2 ball, to'g'ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo'yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo'yicha o'zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To'g'ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo'shib, boshqalarga 0 ball qo'yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o'zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo'shib qo'yiladi.

5. Endi har bir talaba-o'quvchining baholash uchun ularga mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan test tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa talaba-o'quvchilari tayyor javoblar asosida tekshirib, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo'yicha ball qo'yiladi.

6. Dars o'qituvchi tomonidan talaba-o'quvchilar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va talaba-o'quvchilarga to'plangan ballar e'lon qilinib, rag'batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo'ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi.

Guruh talaba-o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, o'quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog'liq ravishda dars vaqtida etishmovchilik kutilsa, to'rtinchchi bosqichni o'tkazmaslik mumkin.

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rghanish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lган mavzularni o'rghanishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini

qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi-talaba yoki o'qituvchi rolida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi, talaba-o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtaсидаги faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

"Interaktiv" (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib, "interact"- "inter"-bu o'zaro, "act"-bu "harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.

Umumlashtirganda esa "Interaktiv" (interfaol) – "o'zaro harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.

Interfaol ta'lim bu:

- ▲ Strategiya va metodologiya;
- ▲ doimiy muloqotga asoslangan metodlar tizimi;
- ▲ birgalikdagi o'qish va faol ishtirok etishdir.

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishslash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

1. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'naliishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va emotsiyal sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Bular quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni aytoladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharplash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nnaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtaсидаги о'заро bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqlashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalananadi.

Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

1.3. Innovatsiya ta'limni rivojlantirishda pedagogning faolligi sifati to'g'risida.

Ma'ruza davomida talabalarga O'qituvchi kasbi nima? Shu savolni to'liqroq yoritib berishi. Kasb shunday yig'ilgan tushunchaki, unga inson mavjudlik manbai bo'lgan faoliyat turi kirishi to'g'risida izoh berish. O'qituvchi insondagi benihoya boy jismoniy va intellektual imkoniyatlarni ochib berishi kerak. Pedagogning o'z mehnatiga iste'dodi bo'lishi kerakligi, ya'ni ayrim faoliyatga bo'lgan havasi, qobiliyati, ushbu mehnat turiga bo'lgan zaruriyatligiga izoh berish.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarorini hamda «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish Davlat dasturi Kontseptsiyasini qabul qilinishi, Respublikani sakkizta Vazirligi hamkorligida qabul qilingan O'zbekiston aholisini jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilab beruvchi «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus test-sinovlarini joriy etish haqidagi qo'shma qarori va ularda belgilab berilgan umumiyligi o'rta ta'lim maktablariga jamiyatning qonuniy o'sib borayotgan talabini qaysi o'qituvchida fuqarolik pozitsiyasi tarkib topgan bo'lsa, kim umumiyligi va kasb madaniyatini egallagan bo'lsa, kimda ijtimoiy faollik tarbiyalangan bo'lsa, ana shunday o'qituvchi amalga oshira oladi.

Yuqori talabga javob berish uchun, talaba muntazam ravishda o’z-o’zini takomillashtirishi, pedagoglik kasbiy mehnati uchun zarur bo’lgan hamma narsani egallashi, u o’zining xususiy shaxsini shakllantirishi kerak.

Insonning ko’pgina hayotiy vazifalardan, ya’ni ma’naviy boylik, shaxsiyat mazmuni mehnatdan va unga bo’lgan munosabatda to’la va yorqin ifodalanadi. O’qituvchi, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassis (mehnatining yuksak romantikasi shundan iboratki, bu mehnat kelajakka intiladi).

O’qituvchi insondagi benihoya boy jismoniy va intellektual imkoniyatlarni ochib beradi: shaxsni har tomonlama va garmonik rivojlanishiga faol ko’maklashadi, jamiyat a’zolarini aktiv qilib shakllantirish kabi insonparvarlik vazifalarini hal etadi.

O’qituvchi kasbining mazmuni tarbiyalash, bilim berishdan iboratdir. Uning mehnat samarasi faqatgina o’zi ta’sir etish ob’ektiga – o’qituvchilargagina bog’liq bo’lmasdan, balki o’quvchilarini unga bo’lgan munosabatiga ham bog’liq.

O’qituvchi o’zining shaxsiy tajribasi, qobiliyati, bilimidan qat’iy nazar, o’z o’quvchilarining qalbi va ongida chuqur iz qoldiradi, buni u hohlaydimi, yo’qmi, bari bir, o’qituvchining bir qismi uning tarbiyachilarida yashashni davom ettiradi.

K.K.Platonovning kontseptsiyasiga muvofiq shahs tizimida umumiyligi, maxsus va individual-takrorlanmaydigan, yagona xususiyatlar aksini topadi va to’rtta kichik tizimdan tashkil topadi, ular piramida shaklida bo’ladi, uning asosida biologik sifat etilgan, cho’qqisida esa ijtimoiyligi yotadi.

Shaxsning umumiyligi xususiyatlariga g’oyaviy, siyosiy, ahloqiy, xuquqiy, estetik va boshqa qarashlar taaluqlidir, bular uning individual ongini, asosini tashkil qiladi.

O’qituvchining maxsus xususiyatiga: kasb faoliyati va individual tajribasi bilan bog’langan ko’nikmalar bo’ladi. Bunda o’qituvchining o’z predmeti bo’yicha nazariy va uslubiy tayyorgarligi, spixologik va pedagogik ma’lumotligi, shuningdek maxsus kasb mahorati va qobiliyati (bilish, konstruktiv, kommunikativ, informatsion, tashkilotchilik taaluqlidir.

O'qituvchi shaxsiyatining individual takrorlanmas sifatiga psixologik jarayonlarning individual fazilatini oliy asab faoliyati uchun turining xususiyatini: pedagogik faoliyat uchun ahamiyati bo'lgan psixojismoni y sifatini kiritish mumkin.

Tabiiyki, sanab o'tilgan xususiyatlar odamlarda bir xil darajada rivojlanmagan. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilardan oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayonida o'qituvchi shaxsiyatini tavsiflaydigan qobiliyat, sifat xususiyatlarni rivojlanishiga alohida e'tibor berilishi lozim. Bunda kasb egallashda nafaqat maxsus bilim va mahorat va boshqa ko'pgina sifatlar ta'sir ko'rsatishi hisobga olish kerak.

Pedagogik faoliyatining muvaffaqiyati tashkil topishi uchun psixik jarayonlarning ahamiyati ham oz emas.

Epchillik - tanqidiy ko'z bilan qarab bilish, o'zkazilgan ijodiy tasavvur va xotira, diqqatning uyushqoqligi va kuzatuvchanlik;

Jo'shqin sezgirlik va mehribonlik: boshqa kishilarga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati va xakozolar. Axir ahloqiy estetik va boshqa sezgilar rivojlanmagan kishilarda ularni shakllantirib bo'lmaydiki, o'quvchilar irodasi tavsifi belgilariga o'zi irodasiz va irodali kishilar ta'sir ko'rsata olmaydi.

Pedagoglik kasbi uchun insonning tabiiy ma'lumotlari (sifatlari) ham muhimdir. Uning oliy asab faoliyatining turi, mijizi va hatto tashqi ko'rinishining xislatlari masalan, Z.N.Vyatkinaning ma'lumotiga ko'ara, oliy asab faoliyati turkumini, o'qituvchining pedagoglik faoliyatini individual faoliyatining uslubi belgilaydi, bunda uning kasbiy imkoniyati anchagina to'laroq namoyon bo'ladi. Shaxsning umumiy va kasb xususiyati sifatining tuzilishi vertikal bo'yicha joylashgan bo'ladi go'yoki shaxsga butunligiga singib ketgandek, bu esa professionalligining barcha muhim belgilarini nazarda tutish imkonini beradi.

Yuqorida biz shaxsiyat tuzilishini to'rtta kichik tuzilishidan iborat ekanligini gapirib o'tgan edik. Buni o'qituvchining shaxsiyatiga tegishligini ko'rib chiqamiz.

Kasb pedagoglik yo'nalishi shaxsning pedagogik faoliyati etarli darajada – jamiyatning ta'lim tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy

sifatlar va milliy fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja – dasturga muvofiq amalga oshirish, ya’ni avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyatini turidir.

Pedagogik kasbga ahloqiy – etik, mahorat, bilimda, kasbiy qobiliyatida ifodalanadi va pedagogik faoliyatda bolaga bo’lgan muhabbat va qiziqish ehtiyojini aks ettiradigan psixologo-pedagogik sergaklik va kuzatuvchanlik, pedagogik xushmuomalalik, talabchanlik, maqsadga intilishlik, dilkashlik, o’zini tuta biliш, o’z-o’zini baholash. Kasbiy mehnatga layoqatlilik va boshqalarni o’z ichiga oladi.

Kasbiy – pedagoglik yo’nalishining eng muhim shakli moyillik bo’lib hisoblanadi. U o’zining harakatini saqlamaydi, balki faqat psixologik va munga o’tkazishga ko’maklashadi. Agar moyillik mustahkamlansa va faoliyat sabablarini hammasni engish kuchiga ega bo’lsa, u pedagoglik faoliyati ehtiyojida bir shakldan boshqa shaklga aylanadi. Shaxsiyat ehtiyoji va imkoniyati jamiyat talabiga javob beradigan kasb-pedagogik faoliyat uning ijtimoiy mohiyatini tasdiqlaydigan o’zini-o’zi takomillashtirishning xarakatlantiruvchi vositasini vujudga keltiradi.

O’qituvchining kasb-pedagogik yo’nalishi darajasi faoliyat maqsadini ochib berish yordami bilan tavsiflash, uning manfaati va ehtiyojini aks ettiradi. Maqsadning ijtimoiy ahamiyatligi qanchalik yuqori bo’lsa, uning shakllanish darajasi ham shunchalik yuqori bo’ladi. Kasb-pedagoglik yo’nalishining barqarorligi o’qituvchining o’z kasbi chiniqqanligi va ehtiyojinin doimiyligi bilan aniqlanadi.

Shaxsning kamolotga erishish jarayoni murakkab bo’lib, kishining irsiy birliklaridagi dasturi (taqdiri azal), shaxsiy shijoati va tashqi ijtimoiy, shu jumladan maqsadga yo’naltirilgan ta’lim-tarbiya muhitlarining ta’siri ostida kechadi.

Yoshlarni hayotga tayyorlash uchun o’qituvchi balog’atga etmaganlar dunyoqarashini shakllantirishda jamiyat oldida ma’sul hisoblanadilar.

Maqsadga yo’naltirilgan ta’lim-tarbiya shaxs rivojlanishida hal qiluvch ahamiyatga ega. Masalan: shaxsning umumiy fazilatlari:

A. Yoqimlilik, jozibadorlik – insonni birinchi ko'rishdayoq ko'zga tashlanadigan jozibalik, dilbar, o'ziga xosligi.

Ahloqiy xislatlari:

A. Odamiylik – chin insonga xos fazilat bo'lib, bu aql – zakovot mevasidir.

B. Bolajonlik – millatimizga xos, mos xislat, ko'p bolalilik.

Shaxsning zakovotlilik xislatlari.

A. Zehnlilik, ziyraklik–shaxsning tabiat hodisalari, qonunityalariga, jamiyat iqtisodiy jarayonlariga oid qonuniyatlarni umumlashtira olishi va undan krakli joyda samarali foydalanish ko'nikmalarini.

B. Chuqur bilimdonlik, saviyalilik – saviyalilik faqat bilimdonlikkina emas, balki universallikni, hozirjavoblikni bildiradi.

V. Odatdan tashqari fikrlash – shaxs iqtidorining mezoni, o'ziga xosligi, boshqalardan farqli o'laroq iinnovatsiya fikrlash ko'nikmasidir.

Ehtirosli xislatlar:

A. Ishonuvchanlik – shaxsning ijobiy xislatlaridan biri, boshqalarga ishonishi.

B. Ozodalik, nozik tabiatlilik – inson ehtiroslilik xislatlarining eng nafisi, gard yuqtirmaslik xisi hisoblanadi. Qaerda bo'lmasin inson o'zini ozoda tutsa, shunga ruhi pok, fikri – zikri yaxshi bo'ladi. Shaxsiy xislatlarni shakllantirish o'quvtarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

O'qituvchining shiddatli ishlashi uni o'z kasbi va ijtimoiy majburiyatlarni faol bajarganligida namoyon bo'ladi.

Kasb yo'nalishning ta'sirchanligini o'qituvchining amaliy ishlari, tarbiyaviy ishlarning natijalari bo'yicha aniqlanadi.

O'qituvchi shaxsiyatining bosh miya po'stlog'ining tag osti tuzilishi ikkinchisini belgilab beruvchi xususiyati, kasb va maxsus tayyorgarligi hamda omilkorligi bo'lib hisoblanadi.

Pedagoglik faoliyati o'zining maxsus tuziliga ega, uning tarkibiga ulkan miqdordagi pedagoglik faoliyat, nisbatan unchalik ko'p bo'limgan asosiy mahorat ro'yxatini shakllantiruvchi harakatlar kiradi. Ularga bilish (gnostik), konstruktiv, kommunikativ, tashkilotchilik qobiliyatları taaluqlidir.

O'qituvchining bilish (gnostik mahorati) bola psixikasini, uning psixik holatini chuqur tushunish uchun zarurdir. Ularga darslar va tarbiyaviy tadbirdar uchun zarur bo'lgan axborotlarni ajratib olishi, o'z harakatini nazorat qilish, ularni takomillashtirish, psixo-pedagogik bilimlardan foydalanish, to'plangan pedagogik tajriba va boshqalar kiradi. Bu mahoratlarni shakllantirishning zarur sharti etarli darajada tarkib topgan idrok, diqqat, tafakkur, tasavvur, xotira kabilalar rivojlangan bo'lishi kerak. Bu, ya'ni bilish mahorati o'qituvchi mehnatining kasbiy umumintellectual asosini barpo etadi.

Konstruktivli mahorati taxminiy vazifani bajaradi, ular o'qituvchining amaliy xarakatidan o'zib ketgandek bo'ladi. Mashg'ulotlarning kompozitsion tuzilish shunday usullarini belgilaydik, ular o'quvchilarda intellektual, emotsiyal va amaliy qiziqish uyg'otadigan bo'ladi. Ular tarbiyaviy ishlarni rejallashtirish jamoaning rivojlanishida kelajak yo'nalishlar tizimi va ayrim paxsni maqsadga muvofiq yoshi va psicho-jismoniy xususiyatidan kelib chiqib, jamoa sharoitida individual tarbiya dasturini amalga oshirish bilan bog'langan.

Kommunikativli mahorat o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar, jamoatchilik vakillari bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlar o'rnatilishda, jamoalar o'rtasidagi munosabatlarini tartibga solishda, o'quvchilarni o'ziga moyil qila olishni uddalashida, ular bilan muloqotda bo'lishning kerakli shakllarini topa olishda, pedagogik ta'sir ko'rsatishning natijalarini oldindan ko'ra bilishda namoyon bo'ladi.

Axborotli mahorat ba'zan faqat aloqa vositasi qaraladi, mahorat sifatida qarash shu bilan asoslanadiki, ya'ni kommunistiv mahorat faqatgina o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish shartidir, axborot berish mahorati esa nafaqat ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshiradi, balki shu bilan birga ta'lim va tarbiyaning zaruriy atributi hamdir. Axborot berish mahoratning rivojlanishi ovozni to'g'ri boshqarish, ifodali va emotsiyal nutq madaniyatni burro gapirishni ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega.

Tashkilotchilik mahorati: O'qituvchi o'quvchilarni turlicha faoliyat turlariga o'rGANISH, o'z-o'zini o'stirish kasbi xislatlarini uyg'ota olish qobiliyati bilan

aniqlanadi, jamoa har bir shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning quroli bo'lib qolishiga erishmog'i kerak. Talabalar o'qituvchi mehnatining ko'p rejali ijtimoiy ma'sulligini kasbga kerakli egallashi uchun samarali sharoit yaratishni ochiq-oydin anglab olishlari kerak.

O'qituvchi shaxsiyatining uchinchi (yuqoridan) tuzilishning bir qismida ruhiy sifatlar majmuasini belgilaydigan (bilish, hissiyot, idrok etish kabilar bo'ladi, ular xususiy pedagogik qobiliyatini vujudga keltiradi. Shaxsning bu individual, barqaror xususiyati, ob'ektga nisbatan, pedagogik mehnat sharoiti, vositalarini o'ziga xos sezgirlik nisbatan engil va chuqur kirib borishi ro'y berishi, pedagogik ta'sir bilan egallaydigan bo'ladi.

O'qituvchi shaxsiyati ijtimoiy faolligi, shakllanishning ahamiyatini ta'kidlab, bu faollik sifatini rivojlantirish imkonini ta'minlaydigan, ularning ifodalanish darajasi ko'rsatkichlarni, shuningdek bu sifatlarni shakllantiruvchi faoliyat turlarini ko'rsatib o'tiladi.

1. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish imkoniyatini belgilovchi shaxs sifati. Ijtimoiy sifatlar: dunyoqarashi, ahloqiyligi, yuqori ma'lumotliligi (umumiyligi va kasbiy tayyorgarligi darajasi), madaniyati (mehnat, muomala, fe'l-atvori, umumiyligi eruditsiya madaniyati va hakozolar), intizomliligi tashkilotchiligi.

Psixologik sifatlar. Rivojlangan intellekt (tushunchalarni uddalay olish harakati, hodisalar mohiyatini ocha olish), qobiliyat (umumiyligi va maxsus), hissiyot (ahloqiy va estetik hissiyotlar dinamikasi, ustun kayfiyat), faollikni rag'batlantiruvchi iroda farmonlari (maqsadni tanlash, harakat dalillari, vositalar, qabul qilingan qarorlar). Birinchi galda ijtimoiy talabni qondirishga yo'naltirilgan manfaatlarning oqilona ehtiyojlari.

Kommunikativli mahorat. Bir-birini tushunishni o'rnata olish mahorati va g'oyalar, bilimlar o'zaro almashish.

Jismoniy sifatlar:

Mustahkam sog'liq va jismoniy takomillashuv, yuqori darajadagi mehnatga layoqatlilik.

Ko'rsatib o'tilgan sifatlar o'rtasida ma'lum muhim o'xshashliklar mavjud. Ijtimoiy sifat yo'nalishning ahamiyati asosida yotadi, ijtimoiy faollikning mazmunini belgilaydi.

Psixologik sifat:

Ularning tuzilishi, faollikning yo'nalishi va tavsifini belgilaydi, uning har xil komponentlarini birlashtiradi. Jismoniy sifat shaxsning moslashish imkoniyatini kuchaytiradi va shu asosda uning ijtimoiy ish koeffitsientini o'stiradi.

1. Ijtimoiy faollik sifatining ifodalanishi bo'yicha ko'rsatkichlar; intensivlik, taranglashish.

2. Ijtimoiy faollik ko'rinaradigan va shakllanadigan faoliyat turlari: pedagogik bilish, siyosiy, ahloqiy-huquqiy, badiiy-estetik kommunikativ, jismoniy-sport faoliyatning har bir turida ijtimoiy faollikning ma'lum turi muvofiq keladi.

O'qituvchi shaxsi qarab chiqilayotganda uning umumiyligi o'zaro aloqador bo'lgan pedagogik, jismoniy madaniyatiga alohida to'xtab o'tish kerak.

Pedagogik faoliyatning samaradorligi va sifatini oshirish o'qituvchining umumiyligi madaniyatni pisanda qiladi. Bu erga I.Karimovning madaniyat to'g'risidagi talqinini kiritish kerak.

Madaniyat insonlarning hayoti va faoliyat sohasiga kirib boradi, ularni ratsional mehnat qobiliyati va ijtimoiy tajribani egallashning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchining shaxsi, ko'pgina ijtimoiy ahamiyatli belgilari bilan tavsiflanadi, ulardan biri – uning umumiyligi madaniyatidir.

Shaxsning madaniyati. Bu uning ehtiyojlar, ijtimoiy sifatlar faoliyati va fe'l-atrori tuzilishida ifodalanadigan rivojlanish darajasidir. U insonning hayoti va faoliyatini tashkil etishning shakllari va turlarida ifodalangan qobiliyatlar va ijodiy kuch rivojlanishning ma'lum darajasini aks ettiradi. Madaniyat o'zida bilimlarda, mahoratlarda, tajribalarda, dunyoqarash, ahloqiy, estetik jismoniy rivojlanish darajalarida amalga oshiriladigan faoliyat natijalari ko'rsatkichlarini qamrab oradi.

Agar faoliyat madaniyatida inson kuchi mohiyat uchta asosiy shakllari ajratib ko'rsatilsa: madaniyat yaratuvchi, haqiqfiy madaniyatni o'zlashtirish bo'yicha va

ularni o'qituvchilik faoliyati bilan birgalikda olib borishga harakat qilinsa, u holda ularning hammasi ularda aniq ifodalanganini ko'rish mumkn. O'qituvchining madaniyat yaratuvchilik faoliyati o'qituvchilar shaxsiyatini shakllantirishga yo'naltirilgan. Tarbiya kuchining etakchisi sifatida o'qituvchi to'plagan madaniy boyliklarning o'zlashtirmasdan ularni tasavvur qilib bo'lmaydi. O'qituvchi o'zlashtirgan madaniyatning shaxsan namoyon bo'lishi uning kasb faoliyatida, fe'l-atvorida, hulqda, muomalasida, kundalik hayotida ifodalanganligida aks etadi.

Shunday qilib, o'qituvchi shaxsining madaniyatida umumiyligi madaniyatning barcha tuzilish usullari namoyon bo'ladi, madaniy rivojlanish darajasi, bu darajaga erishish usullari, ershilgan madaniy darajaning pedagogik faoliyatda amalga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtida o'qituvchini tayyorlash jarayoni uni umumiyligi madaniyat bilan birgalikda rivojlanishiga yo'naltirilgan (u o'z ichiga siyosiy, ilmiy, pedagogik, ahloq, estetik, jismoniy) va muvofiq keladigan bilim, e'tiqod, ko'nikma, mahorat, ijodiy qobiliyat.

II – BOB. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI TASHKIL

QILISH METODI.

2.1. Adabiyotlar tahlili

Rus olimasi N.Z.Talizina texnologiyani “belgilangan o’quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat” deb tushuntiradi. Shuningdek, olima zamonaviy o’qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni alohidafan sifatida qarash lozimligini uqtiradi: “O’qitish texnologiyasi – bu o’quv jarayonini nima real tavsiflasa o’sha, o’qituvchiga o’rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo’lsa o’sha.

Pedagogik texnologiyalarni o’quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar o’rtasida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan Rossiyalik olim V.P.Bespalko “Pedagogik texnologiya –bu o’qituvchi mahoratiga bog’liq bo’lmagan holda pedagogik muvafaqqiyatn kafolatlay oladigan o’quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir” deb ta’riflagan. Bu ta’rif mazmunidan muhim ilmiy printsiplarni alohida ajratib ko’rsatish mumkin:

- Pedagogik texnologiya o’quvchi(talaba)larda muxim ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyixalanadi;
- Loyixalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o’qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;
- Yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi Pedagogik texnologiyani fan sifatida e’tirof etish G.K.Selevko tomonidan ham ma’qullanadi: “Pedagogik texnologiya o’qitishning birmuncha oqilona yo’llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham ta’limda qo’llaniladigan usullar, printsiplar va regulativlar sifatida ham, real o’qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir”. Olimning ta’kidlashicha “Pedagogik texnologiya” tushunchasi ta’lim amaliyotida uch ierarxik darajada ishlataladi:
 - 1) Umumpedagogik (umumdidatik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ma’lum mintaqada, o’quv yurtida, ma’lum o’qitish bosqichida yaxlit ta’lim jarayonini tavsiflaydi.

2) Xususiy metodik (predmetli) daraja: xususiy predmetli pedagogik texnologiya “xususiy metodika”ma’nosida qo’llaniladi. Ya’ni ta’lim tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yig’indisi sifatida bir predmet, sinf, o’qituvchi doirasida qo’llaniladi.

3) Lokal (modulli) daraja: lokal texnologiya o’zida o’quv tarbiyaviy jarayonning ayrim qismlarin, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalar echimini o’zida mujassamlashtirdi.(alohida faoliyat turlari texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, alohida shaxs sifatlarini tarbiyalash, dars texnologiyasi, yangi bilimlarni egallash, mustaqil ishslash texnologiyasi va boshqa).

Rossiya olimlaridan V.M.Manaxov “Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalahtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo’lgan tartibli amallar tizimidir” – degan qisqacha ta’rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariiga e’tiborini qaratdi.

“Pedagogik texnologiya – o’quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg’unligini oshirib bu jarayon ijrochisining sub’ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi” deydi.

M.V.Klarin fikricha, Pedagogik texnologiya – o’quv jarayoniga texnologik yondoshgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko’rsaktgichlaridan kelib chiqib, o’quv jarayonini loyixalashdir.

“Pedagogik texnologiya – o’quvchilar harakatlarida aks etgan o’qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi”.⁷

- V.P.Bespalkoning O’zbekistonlik shogirdlaridan Nurali Saydahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, “Pedagogik texnologiya – bu o’qituvchining o’qitish vositalari yordmida o’quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko’rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir”. O’zbekistonlik pedagog olim Tolipov O’.Q pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta’rif beradi: Pedagogik texnologiya – ta’lim jarayoniga iinnovatsiya yondashuv bo’lib, pedagogikada

⁷ I.Ya.Lernerning fikriga ko’ra,

ijtimoiy-muxandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyixasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir.

Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T.Sakomotobergan ta'rifni keltiramiz. "Pedagogik texnologiya – deydi Sokomoto – bu majmuali fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuaga keltirishdir".

Yana Sakamoto tomonidan "o'qitish texnolgiyasi – bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l – yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi" ekanligi e'tirof etiladi.

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan YuNESKOning ta'rifi bo'yicha, "Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egallahda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyixalashda va amalda qo'llashda majmuali yondashuv usulidan foydalanishdir".

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy – falsafiy nuqtainazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDH davlatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligni ko'ramiz. Jumladan, Sakamoto va YuNESKO ta'riflaridamajmuali yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. MDH olimlarining pedagogik texnologiyaga bergan ta'riflarida majmuali yondashuv eslatib o'tilgani bilan, o'quv jarayonining loyixasini tuzishganda uni mutloq unitib majmuali yondashuv tamoyilining qonun va qoidalariiga sira ham amal qilmaganligini ko'ramiz.

Haqiqatda esa, ob'ektiv borliqqa majmuali yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga, Sakomota aytganidek, "Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini muayyan bir majmuaga keltirishdir", degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali pedagogik texnologiyaning boshqa hamma xususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganini, bir necha o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo'ladi. Chunki bu xususiyatlarning hammasi majmular nazariyasiga binoan majmua deb nom olgan narsa va

hodisalarining ajralmas sifatlaridir.

Yu. K. Babanskiyning tasnifi buyicha metodlar uchta guruhga bo'linadi:

-o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

-ularni rag'batlantirish va motivlashtirish;

-nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish.

Babanskiyning tajriba ishlarida qator yangi metodlar va usullar mavjud.

Babanskiy quyidagilarni tavsiya etadi:

- bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

qarashlariga tayangan holda tasniflashning qo'yidagi tartibini tavsiya etganlar:⁸

- yangi bilimlarni (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya ma'ruza metodlari);

- yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laborotoriya ishi, darslik va kitob bilan ishslash, o'yinlar, mashqlar;

- darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishslash metodlari;

- mustaqil ish.

Oliy maktab o'qituvchisining pedagogik faoliyati tavsifida olimlar, odatda,

Ular quyidagi komponentlarni farqlaydilar:⁹

1. konstruktivlik;
2. tashkilotchilik;
3. Ilmiy bilish;
4. kommunikativlik.

Konstruktivlik komponenti ilmiy-tajriba, o'quv-tarbiya ishlarida loyihalash yoki o'z konstruktsiyalash malakalarida ko'rindi. Loyihalash malakasi – bu ilmiy izlanishni yoki o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirishning intellektual malakalaridir.

⁸ T.A.Ilina, A. Munavvarovlar olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Yu.K. Babanskiyning

⁹ N.V.Kuzmina va Z.F. Esarova tajribalariga tayanadilar.

O'qituvchining loyihalash malakasi Z.F.Esarova tomonidan tadqiq etilgan. Oliy maktab o'qituvchisi faoliyatini tavsiflash va baholash uchun quyidagi sathlardan foydalaniladi: reproduktiv. Bunda o'qituvchi faqat o'zining axborotlarini loyihalashtiradi, lekin auditoriyadagi talabalarning saviyalarini hisobgaolmaydi; • moslashuvchan. Bu sathda o'qituvchi o'quv axborotlarini auditoriyadagi talabalarning saviyalariga mos qilib modellashtiradi; lokal-modellashtirish. Bu sathda o'qituvchi axborotlarni bayon qilibgina qolmaydi, balki ayrim masalalar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini modellashtira olishi lozim; • tizimli-modellashtirilgan bilim.

Bu sathda konkret fanni o'zlashtirish uchun zarur bo'lган o'z faoliyati va talabalar faoliyati tizimini modellashtiradi; tizimli-modellashtirilgan faoliyat.

Bu sathda o'qituvchi talabalar bilan birga barcha o'quv-tarbiya ishlari tizimini modellashtira oladi.Tashkilotchilik faoliyati. Bunday faoliyat ilmiy izlanish va o'quv-tarbiya jarayonini aniq rejalashtirish va tashkil etish malakasida ko'rindi. Bu o'qituvchi, talaba va boshqa olimlarning o'zaro aloqador faoliyatidir. Tashkilotchilik faoliyati o'zini, o'zining vaqtini; talabalarning individual, guruh, kollektiv ishini; birgalikdagi tajribalarini amalga oshirish uchun kadrlarni tanlab olish va ularning vazifalarini belgilab berishni tashkil etish malakasida namoyon bo'ladi. Tashkilotchilik faoliyatining asosiy vazifasi shu faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini integratsiyalashdir. Ilmiy-bilish faoliyati. Bu faoliyat atrof-olamni va o'zini chuqur va har tomonlama bilish malakasida ko'rindi. O'qituvchi o'z tajribalari, talabalar va aspirantlarning ilmiy faoliyati jarayoni va natijalarini tahlil qiladi. Kommunikativlik faoliyati.

Bu faoliyat safdoshlari va talabalar bilan maqbul o'zaro aloqalarni belgilash malakasini ko'zda tutadi. Kommunikativlik faoliyati asosida o'qituvchining o'z-o'zini boshqarish qobiliyati yotadi.

2.2. Guruhlarni tanlash va tajriba qo'llash

BMI ni yozishda jismoniy madaniyat yo`nalishi talabalariga o`tilayotgan amaliy va nazariy fanlarni pedagogik kuzatish va tahlil qilish, o`rganish va pedagogic texnologiyalar asosida olib borilgan va ananavi usulda olib borlgan darslarni tahlil qilish orqali natijaga erishish.

Bitiruv malakaviy ishining bajarish usullari: muammoga oid hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlarni o`rganish, pedagogika, psixologiya, oid adabiyotlarni o`rganish va tahlil etish;

- ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish;
- anketik savol-javob, suhbat, qiyosiy va tizimli taxlil;
- pedagogik eksperiment;
- matematik statistika.

Tajribaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda pedagogik-psixologik (anketik savol-javob, suhbat, kuzatish, analitik obraz, talabalarining hujjatlarini qiyosiy tahlil qilish);

- sotsiologik (so`rovnama, testlar);

Biz quyida o`tkazgan tajribaimizda pedagogik texnologiyalar asosida interfaol o`yinlardan keng foydalandik. Jumladan “Venn diagrammasi”, “Bilimlar zinasi”, “Savol – javob”, “Ajurli arra”¹⁰, “BBB jadvali”

Biz o`qituvchilar dars jarayonida birinchi navbatda o`quvchilardan fanlardan chukur va mustaxkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga kizikishni, mexnat kilishga extiyojni tarbiyalab borishni kuzda tutamiz.

Darsga qo`yiladigan asosiy talablardan biri – ta`lim metodlari va usullarini bir-biri bilan mustaxkam boglab olib borish samaradorligini oshirishdir.

Ishning ob`ekti: Term.DU Jismoniy madaniyat yo`nalishi. I-IV- kurs talabalarining Jismoniy madaniyatni o`qitish texnologiyalari va loyixalashtirish, sport o`yinlari va uni o`qitish metodikasi fanidan o`tiladigan dars faoliyati.

¹⁰ Ажур французча “ajour” сўзидан олинган. Бир ёқдан иккинчи ёқка ўтган, икки томони очик маъносини англатади.

III. BOB. ILMIY TAJRIBANI O'TKAZISH USULIYATI

3.1. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari.

Interfaol metod – ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtaсидаги faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

"Interaktiv" (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib, "interact" - "inter"-bu o'zaro, "act"-bu "harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.

Umumlashtirganda esa "Interaktiv" (interfaol) – "o'zaro harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.

Interfaol ta'lif bu:

- ▲ Strategiya va metodologiya;
- ▲ doimiy muloqotga asoslangan metodlar tizimi;
- ▲ birgalikdagi o'qish va faol ishtirok etishdir.

Interfaol ta'lifning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lif-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

1. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari.

Hozirda ta'lif metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lif va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va emotsiyal sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomланади. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan

sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Bular quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni aytoladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharplash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtaсидаги о'заро bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqlashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalananadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalahtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish,

tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullah, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

3.2. An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

Nº	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi.
2	Dars maqsadi	Dars bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish.
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga	Dars rejasi, konspekt va	Interfaol dars ishlanmasi,

	tayyorgarlikka talablar	didaktik vositalarni tayyorlash.	mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchining vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmi	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9	O'quvchilarning faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, shakllari: o'qituvchi-	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol.

		fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol.	o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
10	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.
2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.
3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-

pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lif vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

- 1 O'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;
- 2 O'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
- 3 O'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- 4 Ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;
- 5 Sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;
- 6 Xavfsizlik qoidalariga riox qilishni ta'minlash;
- 7 Davomatni va intizomni saqlash;
- 8 Nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

- 1 Dts talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;
- 2 Interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;
- 3 Interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;
- 4 Mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;
- 5 O'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;
- 6 Interfaol mashg'ulot uchun etarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi.

Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

1. **Moderator** – ta'lismazmunini yaratuvchi, modullarini ishlab chiquvchi.
2. **Trener** – o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.
3. **Tyutor** – masofadan o'qitish dasturlarini yaratuvchisi va bajarilishini ta'minlovchi.
4. **Fasilitator** – darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.
5. **Mentor** – ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
6. **Kouch** – ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyat davomida amaliy mashg'ulotni olib boradi, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).
7. **Konsultant** – maslahat beruvchi, tushuntiruvchi, qo'shimcha ma'lumot beruvchi.
8. **Lektor** – nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.
9. **Ekspert** – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.
10. **Innovator** – yangiliklarni ta'lismazmuni va mashg'ulotlar jarayoniga joriy qiluvchi.
11. **Menejer** – tashkiliy – pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etuvchi.
12. **Spekter** – kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.
13. **Assistent** – mashg'ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo'llashga tayyorlash, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam ko'rsatib turish.
14. **Sekretar** – zarur ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saqlash.
15. **Texnolog** – pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash

bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.

16.Metodist-ta'lism-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lism bir vaqtida bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emotSIONAL aloqlar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishslashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Interfaol ta'limga dars jarayonini loyihalash

Dars jarayonini loyihalashda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash, ya'ni metodlarni darsning vazifalari va mazmuniga mosligi, o'qituvchi va o'quvchilarning imkoniyatlarga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchi darsning loyihasini ishlab chiqishda quyidagi topshiriqlarni ketma-ket bir butunlikda amalga oshirishi kerak.

1-bosqich: O'qituvchi dastur, darslik, metodik qo'llanma va sinf o'quvchilarining umumiylaysi tafsifi bilan tanishib chiqishi lozim.

2-bosqich: Darsning asosiy vazifalari majmuasini: o'qitish, ta'limiylaysi maqsad, tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsadlarni va vazifalarini belgilash.

3-bosqich: Darsning asosiy bosqichlarini to'g'ri, aniq va izchillikda joylashtirish.

4-bosqich: Darsning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o'rinni ajratib olish.

5-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitish metodlarini, vositalarini, texnologiyalarni tanlash.

6-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitishning etakchi; umumsinfiy, kichik guruh va individual shaklini tanlab olish.

7-bosqich: Bo'sh o'zlashtiruvchi va tayyorgarligi kuchli bo'lgan o'quvchilar uchun tafovutlangan mashq va vazifalarini tanlash.

8-bosqich: Tegishli sinf o'quvchilari uchun vaqt me'yorlariga muvofiq uy

vazifasining maqbul hajmini tanlash.

Interfaol ta’lim jarayonida kichik guruhlarda ishlash

Muammoli ta’lim jarayonida kichik guruhlar ishini tashkil etish uchun o’qituvchi quyidagilarni yaxshi tushunib olishi lozim:

1. O’quvchining individual harakatlari bilan jamoa bo’lib ishlagandagi harakatlari nimasi bilan farqlanadi?
2. Kichik guruhlarning birgalikdagi ishidan qanday natijalarni kutish mumkin?
3. Guruhning hamfikrlilar jamoasiga aylanishi uchun nimalar qilish kerak?
4. Kichik guruh va uning tarkibiga kiruvchi o’quvchining ishini qanday baholash kerak?

Guruhrs bilan ishlash bo’yicha ayrim maslahatlar

1. Hamkorlik guruhlari kam sonli bo’lishi kerak. Guruh qanchalik kichik bo’lsa shunchalik har bir o’quvchi mas’uliyatliroq bo’ladi.
2. Har bir guruh a’zosining bilimini individual tartibda tekshirish lozim.
3. Davriy tartibda tanlab (oralatib) og’zaki so’rovlari o’tkazish foydali, bunday paytda o’quvchilar guruh a’zolari yoki butun sinf oldida guruh ishi haqida gapirib beradilar.
4. Barcha guruhrs ishini kuzatib borish va guruh a’zosining umumiy mehnatda ishtirok etgan hamma holatlarini qayd etish kerak.
5. Har bir guruhda «nazoratchi» bo’lishi kerak, u har bir guruhdoshidan nima uchun guruh berilgan savolga boshqacha emas, aynan shunday javob bergenligini tushuntirib berishni so’rashi mumkin.

Interfaol metodlarning tasniflari.

“Muammoli vaziyat” metodi - “Muammoli vaziyat” metodi ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sababini va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimlarini topish bo’yicha ko’nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan metod.

“Muammoli vaziyat” metodining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

“MUAMMOLI VAZIYAT” METODINING TARKIBIY TUZILISHI	
QUYIDAGICHA:	
Muammoli vaziyat tavsifini keltirish	
O’quvchilarни guruhlarga bo’lish	
Guruhlар muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlashi	
Guruhlarning muammoli vaziyatni oqibatlari to’g’risidagi fikrlarini jamlanish bosqichi	
Guruhlarni muammoli vaziyatni echimini ishlab chiqish bosqichi	
To’g’ri echimlarni tanlash bosqichi	

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi o’quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. O’quvchilar qo’yilgan muammoning echimini topishga qodir bo’lishi kerak, chunki muammoni echimini topa olmasa o’quvchilarning qiziqishlari so’nishi va bolalar o’ziga bo’lgan ishonchini yo’qotishi mumkin. Dars jarayonida ushbu metoddan foydalanganda o’quchilar mustaqil fikr yurtishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga, uning echimini topishga o’rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodini qo’llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O’qituvchi mavzu bo’yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi, muammoni bayon qiladi.
2. O’qituvchi o’quvchilarini topshiriqning vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. O’quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o’rganadilar va muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar. Barcha guruhlar muammoni sabablarini o’rganib chiqqach, taqdimot o’tkazadilar. Barcha guruhlardagi muammoning sabablari to’g’risidagi bir xil fiklar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida guruhlar muammoning kelib

chiqish mumkin bo'lgan oqibatlari to'g'risida fikr yuritadilar va vaqt tugagach, har bir guruh o'z taqdimotini o'tkazadi. Taqdimotdan keyin bir xil fikrlar yana jamlanadi.

6. Endi guruhlar muammoni echishning turli yo'llari va imkoniyatlarini muhokama qiladilar, tahlillar o'tkazadilar. Muammoli vaziyatni echish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoni echish bo'yicha o'z variantlari taklif etilgan taqdimot o'tkazadilar.

8. Barcha guruhlarning taqdimotidan keyin bir xil echimlar yoki original echimlar jamlanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birqalikda muammoli vaziyatni echishning eng maqbul variantini tanlab oladi.

"Galereya" metodi: - «Galereya» usuli kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muxokama qilish imkonini beradi. Bunda guruhning har bir a'zosi barcha taklif etilgan masalalar muhokamasida ishtirok etishi va o'z ulushini qo'shishi mumkin.

1-qadam. Masalani qo'yish. O'qituvchi har bir guruhga ma'lum muammo yoki masalani beradi.

2-qadam. har bir guruh o'z masalasi ustida ishslash. Masalalar ustida ishslash kichik guruhlarda amalga oshiriladi (odatda 5-10 minut).

3-qadam. Kichik guruhlar qo'shni guruhlar masalasi echimini oxirigacha etkazishga o'tish. har bir kichik guruh o'z g'oyalarini yozgan katta varaqni olmasdan doira bo'ylab siljiydi. Variant sifatida guruh siljishi o'rniga doira bo'ylab ishlangan g'oyalar yozilgan katta varaqni uzatish mumkin.

4-qadam. qo'shni masalasi echimini oxirigacha etkazish. har bir kichik guruh varaqqa yozilgan qo'shni guruh g'oyalarini o'rganadi; savol belgisi bilan rozi bo'lмаганларни belgilaydi; qo'shni masalasi echimi bo'yicha o'z g'oyalarini yozadi. 5 minutdan keyin guruhlar doira bo'ylab keyingi kichik guruhga o'tib, yana joylari bilan almashadi. Siljishlar soni kichik guruh.lar (qo'yilgan masalalar) soniga teng.

5-qadam. O'z masalasiga qaytish. Masaladan masalaga doira bo'yicha

o'tishlar har bir kichik guruh o'zining dastlabki masalasiga qaytish bilan tugallanadi.

6-qadam. Taqdimot va ish natijalari muhokamasi. har bir guruh navbat bilan o'zlarining qog'oz varaqlarida yig'ilgan natajalar g'oyalarni tushuntirish va sharhlar bilan taqdim etadi. Boshqa guruhlar ular taqdimot qilayotgan guruh varag'iga yozgan g'oyalarini tushuntiradilar va sharhlaydilar. Zarur hollarda g'oyalar umumiy guruhda muhokama qilinishi mumkin.

Texnologiyadan foydalanish tartibi:

1-qadam. O'quvchilar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linadilar.

2-qadam. O'qituvchi har bir guruh va uning har bir a'zosiga mustaqil o'rghanish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun o'rghanilayotgan yangi mavzu bo'yicha alohida yozma tarqatma material beradi. Tarqatma material umumiylar mavzuning bir qismini tashkil qiladigan matndan yoki jadvaldan iborat bo'lib, guruhning barcha a'zolariga bir xil mazmunda bo'lishi kerak. Demak, yangi mavzu oldindan tashkil etiladigan guruhlar soniga qarab, 4 yoki 5 qismga bo'linishi lozim. Shunda har bir guruh yangi mavzuga oid alohida matnga ega bo'ladi.

3-qadam. Guruhning har bir a'zosi matnni yakka tartibda, alohida o'rghanib chiqib, eslab qolishi, keyin esa matnni guruh a'zolari o'zaro savol-javob asosida guruhda muhokama qilishi kerak. Matnning katta kichikligiga qarab bu ishga -10 minut ajratiladi.

4-qadam. O'qituvchi har bir guruh yoniga kelib, guruh a'zolariga oldindan tayyorlangan, raqam yozilgan qog'ozlardan bittadan olishni taklif etadi (qog'oz soni guruhdagi o'quvchilar soniga teng bo'lishi kerak). O'qituvchi raqamlar bo'yicha yangi guruhlar tuzaishni taklif etadi (1 raqamini olganlar 1-guruh, 2 raqamini olganlar 2-guruh va hokazo)

5-qadam. Yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifani ham o'qituvchi, ham o'quvchi vazifasini oladi. Ya'ni guruhning har bir a'zosi oldingi guruhda o'zi o'rghanib chiqqan matn mazmunini yangi guruh a'zolariga o'rgatishi va o'z navbatida guruhning boshqa a'zolarining matnlarini ham o'zlashtirib olishi talab etiladi. Bunda guruhning har bir ishtirokchisi o'zi

o'zlashtirgan materialni so'zlab berish orqali boshqalarga tushuntirishi kerak.

Buning uchun 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Natijada raqamlar bo'yicha tuzilgan yangi guruhlar umumiyl mavzu bo'yicha barcha materiallarni o'zlashtirishga erishadilar.

6-qadam. Guruhdagilar bir birlariga o'z matnlarini gapirib bergach, matn qanday o'zlashtirilganini tekshirish uchun o'qituvchi guruh a'zolarini o'z matnlaridan kelib chiqib, bir-birlariga savol berishlarini tushuntiradi va guruh ichida shu tariqa ichki nazorat o'tkaziladi. Bu esa guruhdagilarning bir birlariga so'zlab bergen materiallarini boshqalar tomonidan qanday o'zlashtirilganini aniqlashga va mustahkamlashga yordam beradi.

7-qadam. O'qituvchi barcha o'quvchilarni oldingi guruhlariga qaytishlarini so'raydi va hamma mashg'ulot boshlanishidagi guruhiga qaytishi kerak.

8-qadam. O'qituvchi barcha o'quvchilarning mavzuga oid hamma material bilan tanishib chiqqanligini hisobga olgan holda, sinfdagi hohlagan o'quvchisidan ushbu mavzuga oid hohlagan savolini so'rashi mumkinligini aytadi va nazorat savollarini reyting ballari asosida baholashni tushuntiradi.

Savollarga berilgan javoblar agar to'liq bo'lsa –3 ball, qo'shimcha qilinsa 2 ball, o'tirgan joyda luqma tashlasa 1 ball, javob berolmasa 0 ball qo'yiladi. Guruh a'zolarining javoblarini belgilash va hisoblab borish uchun 1 o'quvchi tayinlanadi.

9-qadam. O'qituvchi tarqatma materiallardagi savollar asosida guruhlarni o'zlashtirishini tekshirib chiqadi.

10-bosqich. Endi o'qituvchi har bir guruhga o'z materiali asosida yangidan 3 ta savol tuzishni taklif etadi. Vaqt 3-5 daqiqa.

11-qadam. Bu bosqichda guruhlar bir birlariga o'zlari tuzgan savollarni beradilar va berilgan javoblar yuqoridagi tartibda hisoblanadi. Agar boshqa guruhlar savolga to'g'ri javob bera olmasa, guruh o'zi javobni to'ldiradi va qo'shimcha ballga ega bo'ladi.

12-qadam. Yakuniy bosqichda guruhlar to'plagan ballar hisoblanib guruh a'zolari soniga bo'linadi. Ballarni taqsimlashda guruh a'zolarining ham fikrlari inobatga olinishi kerak.

Yozish va o'qish orqali fikrlashni rivojlantirish yoki «Insert» usulida o'qish - Amerikalik pedagoglar tomonidan taqdim etilgan «Notanish matnni insert usuli yordamida o'qish» metodini tarix darslarida qo'llanilsa juda samarali bo'lishi mumkin. Chunki har bir tarix darsida o'quvchilar yangi ma'lumotlar, manbalar va yangi shaxslar hayoti bilan tanishishlari kerak bo'ladi.

O'quvchi matnni oxirigacha o'qib chiqib, hozir o'qiganlaridan hech narsani mutlaqo eslab qolmasligi ko'p o'quvchilar uchun oddiy hol hisoblanadi. Insert usuli orqali o'qish esa tushunib o'qish, o'qish jarayonida faol bilim olish imkonini beradi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtaсидаги faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Interaktiv” (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib, “interact”- “inter”-bu o'zaro, “act”-bu “harakat qilmoq” ma'nosini anglatadi.

Umumlashtirganda esa “Interaktiv” (interfaol) –“o'zaro harakat qilmoq” ma'nosini anglatadi.

Interfaol ta'lim bu:

- ▲ Strategiya va metodologiya;
- ▲ doimiy muloqotga asoslangan metodlar tizimi;
- ▲ birgalikdagi o'qish va faol ishtirok etishdir.

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlari yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni

qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, babs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsiyal sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiysi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Bular quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni aytadidi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharplash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtaсидаги о'заро bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqlashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish,

yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarining mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

3.3. Texnologiyalardan foydalanish metodikasi

Quyida biz darslarda IV bosqich talabalarning bilimlarini oshirishda pedagogik texnologiya orqali amalga oshirilgan loyihasiini ko'rib chiqamiz. Dars "Ajurali arra" o'yini asosida olib borilgan.

Darsning borishi

O'kituvchi darsdan oldin xonani guruxlar bilan ishlashga tayyorlaydi. Talabalar kira boshlaganda xonada 4 ta gurux uchun joy va bu joylar son bilan belgilangan bo'ladi. Talabalar o'qituvchi stoli ustidan raqamlari ko'rinxir may turgan kartochkalarni olib, o'sha sonli gurux uchun mo'ljallangan joyga o'tiradi. Hamma talabalar shu tariqa guruhgaga ajratiladi. Talabalar soniga qarab guruhlar soni va tarkibi o'zgarishi mumkin. Keyin o'tilishi kerak bulgan maruza matni guruhlarga tarkatiladi. Ma'ruza matni 4 qismga bo'lingan bo'ladi. Har bir tarqatma materialga sanoq bo'yicha son qo'yilgan bo'ladi. Guruhlar o'ziga biriktirilgan matnlarni o'zlashtirganlaridan so'ng, endi tarqatma materialga qo'yilgan tartib raqamlariga qarab guruhlar qaytadan tuziladi va o'zlari o'zlashtirgan materialni sheriklariga

tushuntirib berishlari kerak bo'ladi. Bu jarayondan keyin talabalar yana eski guruhlariga qaytadlar. Endi o'qituvchi guruhlarga mavzu bo'yicha savollar beradi. Qaysi guruh yaxshi javob bersa shunga kura baholanadi. Bu o'yinda talabalar ham o'zlashtirish ham tushuntirib berish malakalarini egallaydi.

Biz bu usullarimizni qanchalik samara bergenligini tekshirish uchun pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tilgan guruh bilan an'anviy usulda dars o'tilgan guruhlarning o'zlashtirish darajalarini solishtirib ko'rdik. Buning uchun har bir guruhga dars oxirida o'tilgan mavzu bo'yicha 10 tadan test savollari berib chiqildi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tilgan guruhning ikkinchisiga nisbatan o'zlashtirish darajasi yuqori ekan. (2-rasm)

Tajriba o'tkazilayotgan guruhlardan qanchalik pedagogik texnologiyalar haqida tasavvurga ega ekanliklarini bilish uchun so'rov nomha ham olindi.

Ularga quyidagi savollar berildi.

1. Pedaogik texnologiya haqida eshitganmisiz, u haqida ma'lumotga egamisiz?


Siz ta'lim olayotgan oliygohda pedagogik texnologiyalar asosida olib boriladigan predmetlar bormi?

2. Pedagogik texnologiya ta'limning sifat samarasini oshiradmi?


3. Siz o'qish jarayonida o'qituvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida dars olib borishini hohlarmidiniz?

Innovatsion usullarning qo'llanishi xozirgi zamon talabiga javob beradigan mutaxasislarni etishtirishda yordam beradimi?

(Umumlashgan javoblar esa 1- rasmda ko'rsatilgan.)




1- rasm



2- rasm

3.2. Interfaol usullar

BBB (bilar edik, bilib oldik, bilmoqchimiz) strategiyasi



Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

Venn diagrammasi



Venn diagrammasi:


- 2 va 3 jihatlarni solishtirish, taqqoslash, qarama-qarshi qo'yish hamda ularni umumiylar tarzda ko'rsatish uchun qo'llaniladi.
- Tizimli mushohada, taqqoslash, solishtirish tahlil va sintezni amalga oshirish ko'rikmalarini rivojlantiradi.

Venn diagrammasi tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka (juftlikda) Venn diagrammasi quriladi. Kesishmaydigan aylana qismlari (X) to'ldiriladi.

Juftliklarga birlashtiriladi, o'zining diagrammasi taqqoslanaddiva to'ldiriladi.

Aylanalar kesishgan joyda ular nuqtai razaridan ikki, uch aylana (XX, XXX) uchun umumiylar bo'lган ma'lumotlar jihatlari ro'yxati tuziladi.






Bilimlar zinasi

Ushbu o'yin o'tilgan darslarni takrorlash darslarida utish juda yaxshi natija beradi. Bu o'yin quyidagicha o'ynaladi:

- O'tilgan mavzular bo'yicha guruhami talabalar sonidan kam bo'lмаган savollar tuzib chiqiladi.
- Savollar mavzular kema-ketligi bo'yicha pastdan yuqoriga qarab qo'yib chiqiladi.
- Savollarni o'rnatish uchun katta devoriy gazetadan foydalaniladi, devoriy gazetaga katta zina chizilib mavzular savollari o'zlashtirish bosqichi bo'yicha zinadan yuqoriga qarab joylashtirilib chiqiladi.
- O'qituvchi eng pastdagi osnoroq savolni olib o'qiydi biladigan talaba turib javob beradi va keyingi savolni ochish xuquqini qo'lga kiritadi.
- Agar talaba 3tadan ko'p savolga javob bersa boshqa o'zi hohlagan talabaga savollarni ochish xuquqini berishga majbur.
- Talaba savolga javob bera olmasa o'qituvchi navbatdagi talabani belgilashi mumkin yoki talabalardan hohlovchilar chiqishadi.
- Dars so'ngida o'qituvchi talabalarni bergen javoblariga qarab baholab chiqadi.

«Savol – javob»



Bu o'yin biror-bir mavzuni o'zlashtirishda ancha qulaydir. O'yin quyidagicha o'ynaladi:

- Avvalo o'qituvchi ma'ruza paytida guruhlarga ushbu mavzu bo'yicha seminar darslariga har bir talabaga bittadan savol topib kelishni vazifa qilib berishii kerak. Azifani bajarmagan darsga qo'yilmasligini aytib o'tish kerak.
- Savollar aynan shu mavzudan bo'lishi lozim.
- Seminar paytida guruhlar ikkiga bo'linadi har bir guruhdagi talabalarga raqamlar tarqatiladi. Birinchi guruhdagi raqam ikkinchi guruhda ham bo'lishi lozim.
 - Guruhlar nomlanadi buni o'qituvchi bajaradi.
 - O'qituvchining oldida esa qutichada buklangan qog'ozlar bo'ladi. Bu qog'ozlarning ichida son va biron guruh nomi yozilgan buladi, bu qutida aynan shu son lekin ikkinchi guruh nomi yozilgan qog'ozcha ham bo'ladi. Qutichada hamma talabaga etarli qog'ozchalar ya'ni talabalar raqamlari bo'lishi kerak.
- Talabalardan biri qutichadan qog'oz olib ochadi qog'oda son va guruh nomi bo'ladi, qog'ozda yozilgan guruhdagi va raqamdagagi talaba raqib guruhidagi aynan shu raqamdagagi ishtirokchiga o'z savolini beradi. Javob bera olmasa savol bergen talaba javob berishi kerak.
- Hamma talabalar savol beradi va bitta savolga javob beradi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish mamlakatimiz ta'lif tizimini isloh qilishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilishi beziz emas. Chunki pedagogik texnologiya ta'lif jarayonini inqirozdan xoli etish, uni Davlat ta'lif standarti talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

- Tajriba jarayonida talabalarda o'z fikrlarini erkin ifodalashlari, axborotlarni tanqidiy qabul qilishlari, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirildi.
- Xulosa qilib shuni aytish mumkinki pedagogik texnologiyalar asosida olib borilgan darslar an'anaviy usulda olib borilgan darslarga nisbatan ancha samaraliroq ekan.
- Biz bu ishimizda mashg'ulotlarning pedagogik texnologiyalar asosida olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lishini aytib o'tmoqchi edik. Ya'ni talabalarning o'zlashtirish darajalari va darslarga qiziqishlari ham ortdi.
- Ushbu BMishimizda darslarni noan'anaviy usulda tashkil qilish ham yo'lga qo'yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida (yangi tahriri) 2015 yil 4- sentabr. O’RQ-394-son
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi Toshkent sh., 2017 yil 15 avgust, F-5024-son
3. Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent sh., 2017 yil 10 avgust, PQ-3196-son
4. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent sh., 2017 yil 10 avgust, PQ-3197-son
5. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent sh., 2017 yil 3 iyun, PQ-3031-son
6. Suzish sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 3.05.2018 yil 333-son
7. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining qarori 2017 yil 6 aprel
8. Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida Vazirlar Mahkamasining qarori 2017 yil 15 mart
9. O‘zbekiston respublikasi jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 mart.
10. O‘zbekiston respublikasida sportning gimnastika turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 18 noyabrn, Toshkent sh., 388-son

11. «Kurash» milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent sh., 2017 yil 2 oktyabrь, PQ-3306сон
 12. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lif Vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent sh., 2017 yil 30 sentyabr, PQ-3305-son
 13. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi Vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent sh., 2017 yil 30 sentyabrь, PQ-3304-son
31. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойихалаштириш ва режалаштириш. – Т.: ТДИУ, 2010.
32. К.И. Ахметова, Д.М. Файзуллаева, Д.П.Хошимова «Олий ўқув ютида инновацион таълим технологиясини лойихалаштириш, режалаштириш ва уни амалга ошириш» мавзуси бўйича ўтказиладиган тренинг машғулотининг таълим технологияси: Услубий қўлланма /«Иқтисодий таълимда ўқитиш технологияси» сериясидан. -Т.: ТДИУ, 2010.
33. Tolipov U., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. Fan, 2005.
34. Salamov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari. Ucheb. pasobie dlya VUZov. – Т.: UzDJTI, 2005.
35. Talizina N.Z.. Primenenie innovatsionix metodov v protsesse obuchenie matematike G'G' Trudo' mejdunarodnoy nauchnoprakticheskoy konferentsii "Pedagogicheskie innovatsii v podgotovki uchiteley"-Taoaz:TGPI, 7-8 aprelya 2005.
36. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T. Universitet, 2004.
37. Niyozov.I."Engil atletika".Farg'ona nashriyoti.2005y.
38. Pedagogik va axborot texnologiyalari: yutuqlar va istiqbollari G'G' Respublika ilmiy amaliy konf.mat.-Toshkent:O'z.PFITI.2003.

39. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot).- Toshkent:Moliya nashriyoti.2003.
40. Mavlonova R. Pedagogika. T. O'qituvchi, 2001.
41. Saidahmedov N.Pedagogik amaliyotda yangi texnalogilarni qo'llash namunalari.-Toshkent:RTN.2000.
42. Tolipov O'. Tajriba-sinov ishlarida yangi pedagogik texnologiyalar G'G' Xalq ta'limi j. 2000.
43. Pedagogik texnologiyani amaliy asoslari. Buxoro, 2000,
44. Oliy pedagogika o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari G'G' Respublika ilmiy-metodik konf. materiallari.- Toshkent: TDPU. 2000.
45. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Qarshi. Nasaf. 2000.
46. Avliyaqulov N.X. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyani amaliy asoslari. Buxoro, 2000,


Elektron ta'lim resurslari


1. www.LexUZ
2. www.edu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.TerDU
5. www.tdpu.uz

ILOVALAR

ОРГАНАЙЗЕРЛАР


«ВЕНН» ДИАГРАММАСИ






«Venn» diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish bosqichlari

«Venn» Diagrammasi - 2 yoki 3 ob'ektni, tushunchani, g'oyani, xodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida ishlataladi. U talabalarda taqqoslash, tahlil qilish, gruxlash malakalarini shakllantiradi.




Namuna: Pedagogik texnologiyalar va an'anaviy ta'lim tizimini taqqoslash



**«T» sxema asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish.
(«T» sxema jadvali)**


+ (ha, ijobiy)	- (yo'q, salbiy)

T- jadval
Kontseptsiyaga, voqeylikka, ob'ektga nisbatan munosabat bildirish uchun qo'llash mumkin.




1-bosqich

Talabalar ushbu sxemani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi



2-bosqich

Yakka, juftlikda yoki guruh ichida sxema asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi



3-bosqich

Yagona jadvalga tushiriladi.

4-босқич

Фаолият натижалари таҳлил қилинади ва баҳоланади


T- SXEMA «Test nazorati»

Yutug'i Kamchiligi

- Vatqni tejalishi.
- Frontal holda ish olib borish imkonи.
- Mantqiy fikrni rivojlantirish.
- Baholash qulay.

- Nutqning rivojlanmasligi.
- Muloqatni yo'qligi.
- Hamkorlikda faoliyatning yo'qligi.
- Pedagogik munosabatning yo'qligi.


SWOT – tahlili jadvalidan foydalanish jarayonida talaba mavjud holatni tahlil qiladi va baholaydi. Tahlil va sintez qilish yo’li bilan biror mantiqiy qaror qabul qilishga o’rganadi



Muammoli ta'lif metodiga SWOT – tahlil

S	Kuchli tomoni	<ul style="list-style-type: none"> - muammoli ta'lif asosida talabalar bilimlarni faol o'zlashtiradilar - mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi - mavzuning mohiyatini chuqur tushunishga yordam beradi
W	Ojiz tomoni	<ul style="list-style-type: none"> - ko'p vaqt talab etadi - alohida tayyorgarlik talab etadi - ko'p kuch talab etadi
O	Imkoniyatlari	<ul style="list-style-type: none"> - talabalar soni cheklangan bo'lishi lozim - barcha mavzularni muammoli ta'lif asosida o'rganish imkoni yo'q - pedagogdan maxsus tayyorgarlikni talab etadi
T	Xavflar	<ul style="list-style-type: none"> - belgilangan vaqt oralig'ida muammoning yechimi topilmasligi mumkin - barcha talabalar faol ishtirok etmasligi mumkin

**NIMA
UCHUN?**



Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida qo'llash mumkin

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoniechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sababalarni aniqlash va yo'qotish talab etiladi. Talabalarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema talabalarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Talabalarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini

rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasiga asosan talabalar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi

1-bosqich

Talabalarni «Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish

2-bosqich

Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? So'rog'i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta «nima uchun» degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yairishnga


3-bosqich

Talabalar mini guruhlarga birlashtiriladi, o'z sxemalarini taqqoslashga va qo'shimcha kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy sxema jamlanadi.

4-bosqich

Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

«Nima uchun?» texnikasining sxemadagi ko'rinishi




«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari

- 1.Qanday piktogrammadan foydalanishni o'zingiz hal etasiz.
- 2.Mulohazalarning sxematik ko'rinishi qanday bo'lishini o'zingiz hal etasiz.
- 3.Har bir strelka fikr yo'nalishini ko'rsatishi lozim.

«Nima uchun» texnologiyasi



Axloqiy tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish muammosi



«Qanday?» ierarxik diagrammasi

«Qanday?» ierarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:

1.Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir. «Qanday?» ierarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiylasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darjasini birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos bo'ladi.

2.O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.


3.Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4.Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi kerak.

5. Yangi g'oyalarni qanday grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz tanlab oling(daraxt, kaskad va b.) Bunda muammo shajarasi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

6. To'g'ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish yengil kechadi.

«Qanday? » ierarxik diagrammasining sxematik ko'rinishi




«Qanday» texnologiyasi

■ **QANDAY?**

- muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etiadi va ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganadi

«Qanday ? » ierarxik diagrammasiga namuna




«FSMU» mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi texnologiya

Ushbu texnologiya munozarali masalalarini xal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasida Biron bo'lim o'r ganib bo'lingach qo'llanilishi mumikn, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatishga xizmat qiladi.

FIKR. MULOHAZA. ISBOT

■ **FSMU**



- **F** – Fikringizni bayon eting
- **S** – Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
- **M** – Fikringizga misol keltiring
- **U** -Fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang

«FSMU» mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyadan foydalanish jarayonining bosqichlari

1-bosqich

Talabalarga «FSMU» texnologiyasining mohiyati va ishlash tartibi tushun-tiriladi hamda muhokama etiluvchi masala (ma'lumot) o'rtaqa tashklanadi.

2-bosqich

Talabalar yakka yoki juftlikda o'rtaqa tashlangan masalani muxokama qiladi-lar va «FSMU» jadvalini to'ldiradi

3-bosqi

Kichik guruhlarga birlashadilar va o'z fikrlarini bayon etadlar, qarorning sabablarini aniqlaydi va misollarga tayangan holda xulosa yasaydilar. Barcha guruh a'zolarining fikrlari inobatga oinadi.

4-bosqich

Guruh ichida muhokama qilib yagona xulosaga keladilar. Kata qog'ozga «FSMU» jadvalini to'ldirib taqdimotga tayyorlandilar.

«FSMU» texnologiyasini qo'llashga oid namuna

«Har bir universitet qoshida psixologik tashxis markazini tashkil etish kerakmi?» degan savol muhokamaga qo'yilgan.

F	Fikringizni bayon eting	Bugungi kunda har bir ta'lim muassasi qoshida psixologik yordam yoki psixologik tashxis markazini tashkil etish lozim.
S	Qarorning sababi	Sifat o'zgarishlar davrida ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy qiyinchiliklar yoshlar ruxiyatida zo'riqish vujudga keltiradi. Zo'riqish holatidan chiqib ketishga mutahassis yordam beradi.
M	Misol	Ko'pdan-ko'p talabalar «Pedagogika va psixologiya» kafedrasiga yordam so'rab murojat etadilar.
U	Xulosa	Psixologik tashxis markazi tarbiyalanuvchilarni psixologik zo'riqish holatidan chiqib ketishida va psixologik korrektsiyani tashkil etishda muhim o'rinnegallaganligi sababli uni tashkil etish zarur.

«BLITS - SO'ROV» TEXNOLOGIYaSI

Ushbu texnologiya biror jarayonning ketma-ketligini to'g'ri joylashtirishga, bu jarayon haqida guruh a'zolari va boshqa guruhlarning a'zolarini fikrlari bilan tanishishga imkon beradi.

Harakatlar ketma-ketligi aval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar fikri bilan tanishiga yordam beradi.

«BLITS - SO'ROV» TEXNOLOGIYASI

- **«BLITS –**
- **SO'ROV»**
- **TEXNOLO-**
- **GIYaSI**

■ Ketma-ketlikni
va izchillikni
o'rnatishga
qaratilgan
texnologiyadir

«BLITS - SO'ROV» TEXNOLOGIYASI O'TKAZISH BOSQICHLARI

